



"OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDAGI DEHQONQUL OBRAZI RAMZIY-FOJIAVIY OBRAZ SIFATIDA

Kamilov Miraziz Murodulla o'g'li

Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Ona tili va
adabiyoti ta'limi fakulteti 302-guruh talabasi.
kamilovmiraziz1999@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil

Ma'qullandi: 05-May 2023 yil

Nashr qilindi: 10-May 2023 yil

KEY WORDS

paxta ishi, sovet tuzumi, SSSR, mafkura, oqpodsho, qizillar, kommunizm, Turkiston, istibdod, intiho, bosmachilar..

ABSTRACT

Ushbu maqolada "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi Dehqonqul obrazi ramziy-fojiaviy obraz sifatida mavzusida so'z boradi va o'zbek naqadar sodda, tanti xalq bo'lganligi ularni ruslar qo'lida qanchalik ezilganligi, quldek yashagani, o'z haq-huquqi, erkini yo'q bo'lganligi ochib berilgan. Shu bilan birga yozuvchining asar tilining go'zalligi, shuningdek, shevalarni mahorat bilan o'z o'rnida qo'llaganligi yoritilgan.

O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, uning rivojida kattaiz qoldirgan iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod kitobxon xotirasida hamisha o'qibo'rganishga chanqoq ijodkor, hayotning ko'plar e'tibor bermaydigan ichki tomonlarini bilishga, kuzatishga doimiy ravishda harakat qilayotgan navqiron adib, shu orqali adabiyotda o'z so'zini aytishga jiddiy kirishgan, o'z yo'li, o'z uslubini tinmay shakllantirayotgan izlanuvchan nosir sifatida qolgan Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida qo'llangan iboralarning rang- barangligini ko'rib, ularning asar g'oyasini, obrazlarning xarakterini ochib berishdagi o'rni beqiyos ekanligining guvohi bo'lamiz[1,2]. "Otamdan qolgan dalalar" sahnaga yakka shaxsni, ayrim insonlar xarakterinigina emas, balki inson qiyofasiga singdirilgan, yana ham to'g'rirog'i, insoniy qiyofa o'rnini egallab olgan, odam bolasini, butun bir millatni o'zi to'g'risidagi tushunchadan mahrum etgan tuzumlar, mafkuralar, davrlar xarakterini, ruhiyati, maqsad va mohiyatini ham olib chiqdi. Xuddi shu tufayli romanning asosiy qahramonlari ismi ortidan bitta odamni emas, kamida bitta tuzumni, kamida bitta millatni, kamida bitta mafkurani izlash to'g'rirog' bo'ladi va bunga muallif ham ochiq ishora qiladi[3,4].

"Oqpodsho betini ko'rmayin-da, kuymayin-da" deb pokiza dalasini to'ng'izlarga- kelgindi bosqinchilarga bo'shatib berib toqqa chiqib ketgan va u yerda ham kuchi ketmon chopishgagina yetgan Jamoliddin ketmon asarninghaqiqiy qahramoni.

"El-yurt shunday deb ayt. El-yurt qizillar ig'vosiga uchmasin. Men qizillarni bitta qo'ymay qiraman" deya yov bilan erkaklarcha kurashib, bug'doyzorda o'ligi qolgan Aqrab (Chayon) XX asr boshidagi Turkiston milliy ozodlik harakatining yetakchisi.

Kommunizmga ishonib o'zligini, erkini, haq-huquqini unutgan, nafaqat o'zini, balki oilasini, yaqinlarini ham o'ylamaydigan, SSSR tuzumiga quldek yashagan, keng

dalalardan beri kelmagan, sodda, tanti oddiygina Dehqonqul[5,6]. Aqrabning o'g'li Dehqonqul o'zbek xalqining timsoli sifatida tasvirlangan. Bu qahramon orqali hayotimizning fojiali qirralarini mahorat bilan yoritib bergan. Bolalikdan qullik zulmiga ko'nikkan, hayotni faqat mehnatdan iborat deb bilgan Dehqonqul uchun dalalari va paxtasi muhim. Uning uchun dalalarini yaxshi saqlanishi, mo'l hosil berishigina saodat. Dehqonqul shu tashvishlar bilan band bo'lib oilasiga, farzandlariga e'tibor bermaydi[7,8]. Markazdan keladigan mehmonlarga atab bozorlik qiladi, qo'y so'yadi lekin oilasiga kelsa kambag'al bo'lib qoladi. Siyosatdan yiroq bo'lsa ham "Paxta ishi" bilan qamaladi. Shuncha yil qul bo'lib yashagan Dehqonqulning ko'zi endi ochiladi. Hayotning barcha fojialarini o'shanda anglaydi. Dehqonqul obrazi orqali Sovet dehqon qiyofasitasvirlangan[9].

Yozuvchi Tog'ay Murod roman oxiridagi ilovasida "Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!" - deb bejizga yozmagan edi. Ushbu roman bilan xalqimizga chindan ham katta haykal qo'ydi. Yozuvchi o'z asari tilining tabiiyligini ta'minlash uchun ham Surxon vohasi shevalari, so'zlashuv nutqi shakllari, xalq iboralaridan mahorat bilan foydalangan. Asar juda sodda tilda, haqiqiy dehqon tilidan bayon etilgani tufayli ham unda qo'llangan jaydari so'zlar, birikmalar va iboralar o'quvchini tezda o'ziga rom etadi. Tog'ay Murod asar qahramoni Dehqonqulning sodda, do'lvor xarakteriga mos iboralarni topib qo'llaydi. Yozuvchi qahramonlari tilidan iboralarni ishlatganida, ularning ichki dunyosini, boshqalarga munosabatini ham hisobga oladi. Shuning uchun ham Dehqonqulning onasi uni koyir ekan og'ir so'zlar bilan qarg'amaydi, balki: "Onamiz ketimdan tosh otib qoladi. - Ha, oshingni yeyin sen tentakni, oshginangni yeyin!"[1;28]-deydi".

Tog'ay Murodning asarlarida milliy ruh, qadimiy an'ana va marosimlar, unutilish arafasida turgan qadriyatlarni yoritish alohida o'rin tutadi. Milliy qadriyatlarimiz kitobxon qalbiga birinchi navbatda tilimiz orqali jo bo'ladi. Romanda Surxon vohasining so'lim qir-adirlari, tanti va mehnatsevar odamlari hayoti, tog'-u toshlarining betakror manzaralari tasvirlanadi[10,11]. Tabiat manzaralarini qahramonlar karakter-holati, kechinmalari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlash - adib asarlariga xos yetakchi xususiyatdir. Asarda tabiat o'zgarishlari qahramonlar kayfiyatiga qarab o'zgacha uslubda ifodalangan[12].

Masalan: "Tulki qiziga to'y berdi. Kun qiyalab-qiyalab nur to'kdi. Kun sariq-sariq nur to'kdi. Kun betini ko'rib bo'lmadi. Kun nuriga qarab bo'lmadi. Olam iliq-iliq bo'ldi. Olam sariq-sariq bo'ldi. Havoda oppoq-oppoq bir nimalar uchdi. Havola- havola uchdi. Aylana-aylana uchdi. Burala-burala uchdi. Osmon misoli un elaklamish-un elaklamish bo'ldi. Oppoq bulutlar orasidan kun to'kilib-to'kilib turdi"[3;105]. "Tulki qiziga to'y berdi" [13,14]. Ushbu jumlaning adib o'zi o'ylab topmagan. Bu ota-bobolarimizdan qolgan ibora. Bunday holat osmonda yirik- yirik qor parchalari o'ynoqlab ko'rinish berganda, quyosh zangori tus olsa ham, o'z tarovatini yo'qotmay turgan payt bo'ladi. Shu manzaraga qarab dehqonlar "Tulki qiziga to'y berdi" deyishadi[15].

Tog'ay Murod romanlari adibning qolaversa, milliy adabiyotimizning shunchaki navbatdagi namunalari emas, XX asr aniqrog'i, salkam bir asr davom etgan istibdod nihoyasida maydonga kelgan "Otamdan qolgan dalalar" romani o'sha asr intihosida o'lkada yuz bergan milliy uyg'onish natijasida boshlangan millatning bir necha avlod asl

o'g'lonlari- yorqin iste'dodlar qalbini olov bo'lib o'rtagan nido bo'lib yangradi. O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, uning rivojida beistisno katta iz qoldirgan iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod kitobxon xotirasida hamisha o'qib o'rganishga chanqoq ijodkor, hayotning ko'plar e'tibor bermaydigan ichki tomonlarini bilishga, kuzatishga doimiy ravishda harakat qilayotgan navqiron adib, shu orqali adabiyotda o'z so'zini aytishga jiddiy kirishgan, o'z yo'li, o'z uslubini tinmay shakllantirayotgan izlanuvchan nosir sifatida qolgan Tog'ay Murodning Yozuvchi o'z asari tilining tabiiyligini ta'minlash uchun ham Surxon vohasi shevalari, so'zlashuv nutqi shakllari, xalq iboralaridan mahorat bilan foydalangan [16,17]. Asar juda sodda tilda, haqiqiy dehqon tilidan bayon etilgani tufayli ham unda qo'llangan jaydariso'zlar, birikmalar va iboralar o'quvchini tezda o'ziga rom etadi. Tog'ay Murod asar qahramoni Dehqonqulning sodda, do'lvor xarakteriga mos iboralarni topib qo'llaydi. Yozuvchi qahramonlari tilidan iboralarni ishlatganida, ularning ichki dunyosini, boshqalarga munosabatini ham hisobga oladi. Shuning uchun ham Dehqonqulning onasi uni koyir ekan og'ir so'zlar bilan qarg'amaydi, balki: "Onamiz ketimdan tosh otib qoladi. – Ha, oshingni yeyin sen tentakni, oshginangni yeyin!" [18]– deydi".

Maktab direktorining nutqidagi ibora esa o'z o'quvchisini odam o'rnida ko'rmaydigan, o'ta qo'pol, bemehr bir kimsa, qahri qattiq odamligidan darak beradi:

"Jasadingni qara! Jasadingdan eshak hurkadi! O'l-e, shu kuningga- e!" [19]. Aslida xalq "haybatidan ot hurkadi" deydi, iborani uning tilidan "Jasadingdan eshak hurkadi" deb ishlatadi. Tog'ay Murod asarlari iboralarini o'rganish xalq orasida keng o'llanilayotgan, ammo hali badiiy adabiyotga, adabiy tilga kirib kelmagan iboralarni aniqlash, ular asosida badiiy asar tili iboralarini lug'atini yaratish imkonini beradi. Tog'ay Murodning asarlarida milliy ruh, qadimiy an'ana va marosimlar, unutilish arafasida turgan qadriyatlarini yoritish alohida o'rin tutadi. Milliy qadriyatlarimiz kitobxon qalbiga birinchi navbatda tilimiz orqali jo bo'ladi. Romanda Surxon vohasining so'lim qir- adirlari, tanti va mehnatsevar odamlari hayoti, tog'-u toshlarining betakror manzaralari tasvirlanadi. Tabiat manzaralarini qahramonlar xarakter-holati, kechinmalari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlash – adib asarlariga xos yetakchi xususiyatdir. Asarda tabiat o'zgarishlari qahramonlar kayfiyatiga qarab o'zgacha uslubda ifodalangan. Masalan: "Tulki qiziga to'y berdi. Kun qiyalab-qiyalab nur to'kdi" [20]. Kun sariq-sariq nur to'kdi. Kun betini ko'rib bo'lmadi. Kun nuriga qarab bo'lmadi. Olam iliq-ilik bo'ldi. Olam sariq-sariq bo'ldi. Havoda oppoq-oppoq bir nimalar uchdi. Havola-havola uchdi. Aylana-aylana uchdi. Burala-buralauchdi.

Osmon misoli un elaklamish-un elaklamish bo'ldi. Oppoq bulutlar orasidan kun to'kilib-to'kilib turdi" [21].

"Tulki qiziga to'y berdi". Ushbu jumlaning adib o'zi o'ylab topmagan. Bu, ota-bobolarimizdan qolgan ibora. Bunday holat osmonda yirik- yirik qor parchalari o'ynoqlab ko'rinish berganda, quyosh zangori tus olsa ham, o'z tarovatini yo'qotmay turgan payt bo'ladi. Shu manzaraga qarab dehqonlar "Tulki qiziga to'y berdi" deyishadi. "Otamdan qolgan dalalar" romani tilining o'ziga xosligi yana shundan iboratki, ko'p hollarda asarning ta'sir kuchini oshirish niyatida adib so'zlarni takror-takror qo'llaydi. Masalan: "Yormazorda muhtasham masjid-madrasa bo'ladi. Oqqoshsho mo'min-mazlumni ana shu Yormazor masjid-madrasa qoshida to'dalaydi. Mo'min-mazlum mung'ayib- mung'ayib turadi. Mo'min-mazlum birov-birovini ko'ksiga yig'laydi. Mo'min- mazlum uzun kun ana shunday turadi" [22]. Ushbu

misolda yettita gap, o'ttiz uchta so'z bo'lib, ularda "Mo'min-mazlum" sifati olti marta takrorlanib kelgan, ya'ni har bitta gapda shu sifat qayta-qayta qo'llanilgan. "Yormazor", "bir- birovi", "yig'laydi" kabi so'zlar ikki martadan qo'llanilgan[23].

Tog'ay Murod romanlari adibning, qolaversa, milliy adabiyotimizning shunchaki navbatdagi namunalari emas. XX asr, aniqrog'i, salkam bir asr davometgan istibdod nihoyasida maydonga kelgan "Otamdan qolgan dalalar" bilan "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlari o'sha asr intihosida o'lkada yuz bergan milliy uyg'onish natijasida boshlangan millatning bir necha avlod asl o'g'lonlari yorqin iste'dodlar qalbini olov bo'lib o'rtagan nido bo'lib yangraydi.

Adabiyotlar:

1. "MEN QAYTIB KELAMAN" Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida. To'plovchi: Ma'suma Ahmedova T.: 2008
2. T.Murod Otamdan qolgan dalalar.- Toshkent: 1994
3. O'rozov A."T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarining til xususiyatlari haqida" Til va adabiyot ta'limi, 2009, 5-son, 45-47 -betlar
4. Turopova, P. (2020). "Gulzor qishlogining gulduraklari" qissasida uslubiy o'ziga xoslik. Архив Научных Публикаций JSPI, 19(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1627
5. "MEN QAYTIB KELAMAN" Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida.
6. To'plovchi: Ma'suma Ahmedova. -T.: 2008.
7. T.Murod Otamdan qolgan dalalar. -T.: 1994.
8. O'rozov A. T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarining til xususiyatlari haqida // Til va adabiyot ta'limi. 2009. 5-son, 45-47-b.
9. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Teylor formulasini matematik masalalarni yechishdagi ahamiyati. "«Science and Education» Scientific Journal" Scientific Journal, Tom-3, 19-23.
10. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Darajali qatorlarning taqribiy hisoblashlarga tatbiqi. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-3, 29-32.
11. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Ishoralari almashinib keluvchi qatorlar. Leybnits alomati. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-3, 24-28.
12. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Teylor qatori va uning tadbiqlari. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-3, 33-38.
13. M.T Usmonov, M.A Turdiyeva, Y.Q Shoniyozova, (2021). SAMPLE POWER. SELECTION METHODS (SAMPLE ORGANIZATION METHODS). ООО НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА, 59-60.
14. Usmonov, M.T. (2021). Вычисление центра тяжести плоской ограниченной фигуры с помощью двойного интеграла. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 64-71.
15. Usmonov, M.T. (2021). Биномиальное распределение вероятностей. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 81-85.
16. Усмонов,М.Т. (2021). Поток векторного поля. Поток через замкнутую поверхность. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 52-63.
17. Усмонов,М.Т. (2021). Вычисление определенного интеграла по формуле трапеций и методом Симпсона. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 213-225.

18. Усмонов, М.Т. (2021). Метод касательных. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 25-34.
19. Усмонов, М.Т. (2021). Вычисление предела функции с помощью ряда. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 92-96.
20. Усмонов, М.Т. (2021). Примеры решений произвольных тройных интегралов. Физические приложения тройного интеграла. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 39-51.
21. Усмонов, М.Т. (2021). Вычисление двойного интеграла в полярной системе координат. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 97-108.
22. Усмонов, М.Т. (2021). Криволинейный интеграл по замкнутому контуру. Формула Грина. Работа векторного поля. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 72-80.
23. Усмонов, М.Т. (2021). Вычисление двойного интеграла. Примеры решений. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-2, 192-201.

